

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2-4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.**



**Davomi 2-betda**

E'tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman.

Global iqlim kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan davlatlarimizning intilish va sa'y-harakatlarini birilashtrish muhimidir. Boku shahrida muvaffaqiyatli o'tgan COP-29 global iqlim sammitida qabul qilingan majburiyatlar va kelishuvlar to'liq amalga oshirilishining qat'iy tarafdorimiz.

Tashkilot doirasida cho'l hududlarida o'monlar tashkil qilish, rekreatsiya zonalarini barpo etish bo'yicha Transchegaraviy "yashil dasturi"ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Tashkilotimiz faoliyatini takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan Yuqori darajadagi qo'mitaning ishini ijobiy baholaymiz. Qo'mitaga kelgusi sammitga qadar Tashkilot faoliyatini ishlab chiqish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini to'psizlik, o'ylaymanki, ushbu fikrimni ma'qullaysizlar.

Bunday islohotlar hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish, Tashkilotning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yanada oshirish hamda uning faoliyatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ishonaman, bugungi sammitimiz ko'p qirrali va amaliy hamkorligimizni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi katta niyat va rejalarimizga munosib turki bag'ishlaydi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



**Sirojiddin SAYYID,**  
O'zbekiston xalq shoiri



**Surur va g'urur**



# O'ZBEK-OZAR FAXRIYASI

O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

O'tgan hamma ishdan voqif  
Mulla Panoh Voqif derlar,  
Ogahiydan ogoh el ham  
Ogahiyga boqib derlar:  
Har qadrdon, har xonadon —  
Fuzuliyxon, Qodiriyxon,  
O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

Turna ko'zli buloqlardan'  
suvlar ichib kelganlarim,  
Qondosh desam, jondoshim deb,  
jondan kechib kelganlarim.  
Bir jismu jon, bir jismu jon,  
qadriyat ham ilmu irfon —

O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

Qurbanlaring — yer ostida,  
qo'rg'onlaring — ustindadir.  
Hali qancha ranju alam  
dunyoni kam-ko'stindadir.  
Xalqu Vatan, xalqu Vatan  
o'g'lonlaring ko'ksindadir.  
Shahidlarga shonli makon,  
shonli makon, shonli makon —  
O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

Bugun senga qadalmishdir  
butun olam nigohlari.  
Ikki buyuk elning ikki

Aytsam agar — olamjahon,  
Olgaydir bir nolam jahon.  
Qo'limdagi qalam — jahon,  
Mening ikki bolam — jahon.  
Biri — jon, biri — jonajon:  
O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

Nizomiydan nizom olgan  
Navoiydek daholarim,  
Yer yuziga navo bergan  
mangu nazmu navolarim.  
Kuyga to'lgan havolarim,  
Yeru osmon, yeru osmon —

bedor olampanohlari —  
Jon chekarlar bo'lsin debon  
bog'u bo'ston, bog'u bo'ston,  
Ota makon, ona makon —  
O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

Hali qancha bulbulzabon  
tillar kerak, tillar kerak.  
Tinchlik uchun qancha uyg'oq  
dillar kerak, dillar kerak.  
Hali qancha yillar kerak,  
yillar kerak, yillar kerak.  
Seniki bu dorilomon  
davru zamon, davru zamon,  
O'zbekiston — Ozarbayjon,  
Ozarbayjon — O'zbekiston.

*1 Samad Vurg'un iborasi.*

# O'ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIIY FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH "NURONIIY" JAMG'ARMASI FAOLLARINING MAMLAKATIMIZ YOSHLARI VA KENG JAMOATCHILIKKA MUHOJAATI





2025-yil 5-iyul, 137-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

KO‘ZGU

YANGI O‘ZBEKISTON

# TINCHLIK VA TARAQQIYOTNING ASOSI BO‘LGAN IQTISODIY HAMKORLIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI KENGAYTIRISHDA MUHIM STRATEGIK AHAMIYATGA EGA

## Boshlanishi 1-betda

— Mintaqada yangi aviataqnovlar yo‘nalishlarini ochish, aviakompaniyalar o‘rtasida innovasion hamkorlik shakllarini yo‘lga qo‘yish, turizm va aviatsiya shaharlari o‘rtasida marketing bo‘yicha integratsiyalashgan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir, — dedi O‘zbekiston rahbari.

Shu masalalarni muhokama qilish uchun joriy yilda Samarqandda Milliy aviakompaniyalar forumini o‘tkazish taklif qilindi.

Sayyohlar oqimini ikki barobar oshirish uchun katta salohiyat borligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tashkilot doirasida turizm xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi bunga xizmat qiladi.

Global iqlim kun tartibidagi masalalarda sa‘y-harakatlarini birlashtirish muhimligini qayd etib, Prezidentimiz cho‘l hududlarida o‘rmonlar tashkil qilish va rekreatsiya zonalarini barpo etish bo‘yicha Transchegaraviy “yashil dastur” ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekiston yetakchisi Yuqori darajadagi qo‘mita ishini ijobiy baholab, unga kelgusi sammitga qadar IHT faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar tayyorlash vazifasini topshirishni taklif qildi.

— Islohotlar hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish, Tashkilotning xalqaro maydondagi

obro‘-e‘tibori va nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida ushbu sammit Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko‘p qirrali amaliy hamkorlikka kuchli sur‘at bag‘ishlashi va yangi bosqichni boshlab berishga ishonch bildirdi.

Xonkendi shahridagi Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalardagi muloqotlar faol kechayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi, qo‘shma korxonalar va to‘g‘ridan to‘g‘ri aviataqnovlar ko‘paymoqda. Karachi va Lahorda savdo uylari tashkil etilgan.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalaridagi kooperatsiya loyihalari va dasturlarini jadallashtirish, shu jumladan, Transsag‘on temir yo‘li qurilishini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va biznes forumini samarali o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston va Pokiston yetakchilari xalqaro va

mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Muxtasar aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi dasturi samarali tadbirlarga boy bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari 2-iyul kuni Boku shahrida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev bilan muzokaralar o‘tkazdi.

Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston — Ozarbayjon do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari hamda amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Tashrif doirasida hamkorlikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plami imzolandi.

Yetakchilar Boku shahrida birgalikda “O‘zbekiston” bog‘iga asos soldilar va O‘zbekiston elchixonasining yangi binosini ochdilar. “Sea Breeze” dam olish maskani faoliyati bilan tanishdilar.

3-iyul kuni O‘zbekiston Prezidenti Ozarbayjon Prezidenti hamrohligida Xonkendi shahridagi qo‘shma tikuvchilik fabrikasi faoliyati hamda Ag‘dam shahridagi “Imorat” tarixiy-me‘moriy majmuasi bilan tanishdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

## ITTIFOQCHILIK MINTAQAVIY INTEGRATSIYA JARAYONIDAGI FAOL ISHTIROK BILAN UYG‘UNLASHMOQDA

O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga amalga oshirgan davlat tashrifi yakunlari va Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitidagi ishtirokiga xorijdan nigo

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi yakunlandi, uning doirasida mamlakatimiz rahbari Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitida ishtirok etdi.

Bu ikki voqea O‘zbekiston — Ozarbayjon hamkorligi nuqtayi nazaridan ham, integratsion tuzilmalar doirasidagi ko‘p

tomonlama hamkorlikni kengaytirish jihatidan ham ahamiyatli bo‘ldi. Xorijiy ekspertlar ta’kidlashicha, O‘zbekiston va Ozarbayjon tashqi

iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishda izchil hamda pragmatik yondashuvni namoyon etib, bir-biri bilan ittifoqchilik munosabatlarini

mustahkamlashni mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish bilan uyg‘unlashtirmoqda. Bunday yondashuv, ayniqsa, Markaziy Yevrosiyo mamlakatlari barqaror transport-logistika, energetika va savdo aloqalarini shakllantirishga intilayotgan bugungi o‘zgaruvchan geosiyosiy vaziyat muhitida juda dolzarbdir.

Xose Mariya CHIKIYO, UNESCOning “Ipak yo‘llari” xalqaro dasturi prezidenti:

— Tashrif, shubhasiz, zamonaviy diplomatik amaliyotda yorqin voqea va strategik sheriklik munosabatlarini real mazmun bilan to‘ldirishning namunasi bo‘ldi.

Avvalo, ikki davlat rahbarlarining nafaqat siyosiy va iqtisodiy masalalarga, balki madaniy-gumanitar sohalarga ham e‘tibor qaratgani meni hayratda qoldirdi. Bu xalqlar o‘rtasidagi ma‘naviy yaqinlik, tarixiy aloqalar muhimligini chuqur anglaganidan dalolat beradi.

Boku shahridagi O‘zbekiston elchixonasi yangi binosining tantanali ochilish marosimi tashrifning eng ramziy daqiqalaridan biri bo‘ldi. Binoning o‘zi milliy o‘zlikni hurmat qilish timsoliga aylandi: zallar O‘zbekiston viloyatlari nomi bilan ataldi va Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifi bilan do‘stlik va hamjihatlik belgisi sifatida ulardan biriga Qorabog‘ nomi beriladi. Bu shunchaki diplomatik ishora emas — o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi, bir-birining tarixiy tuyg‘ulari va an‘analarga yuksak hurmat-ehtriomni namoyon etuvchi madaniy ko‘prikdir.

Bokuning eng istiqbolli hududlaridan biri — “Oq shahar” mavzesida “O‘zbekiston” bog‘i qurilishining boshlanishi ham ahamiyatli bo‘ldi.

Bu shunchaki bog‘ emas — ochiq osmon ostidagi madaniyati elchixonasi bo‘lib, unda Ozarbayjon aholisi va mehmonlari O‘zbekistonning boy tarixi, an‘analari va estetikasi bilan tanishishi mumkin. Davlat rahbarlarining poydevor qo‘yishda shaxsan ishtirok etishi, ma‘naviy-madaniy integratsiyaning yangi bosqichi boshlanganidan darak beruvchi kapsula qo‘yish marosimi juda ramziy ma‘noga ega.

Yan CHEN, Shanxay global boshqaruv va mintaqaviy tadqiqotlar akademiyasi direktori (Xitoy):

— Xitoy institutsional yetuklik, o‘zaro manfaatdorlik va yuqori darajadagi siyosiy ishonch bilan ajralib turadigan O‘zbekiston — Ozarbayjon muloqoti dinamikasini qiziqish bilan kuzatmoqda. Aytish joizki, bugungi yaqinlashuvning asosi ikki davlat rahbarlarining shaxsiy hamkorligidir. Ularning doimiy muloqoti dolzarb mintaqaviy va xalqaro muammolar bo‘yicha kelishilgan qarorlar ishlab chiqish, qo‘shma tashabbuslarni tezkorlik bilan boshlashga xizmat qilmoqda.

Do‘stlik ittifoqini mustahkamlagan eng muhim insonparvarlik harakati O‘zbekiston Qorabog‘ hududini tiklashda Ozarbayjonga yordam ko‘rsatgan birinchi davlat bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev dunyoda birinchi bo‘lib o‘z tashabbusi bilan ozod qilingan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani tiklash uchun, jumladan, Fuzuliy tumanida zamonaviy maktab qurilishi uchun mablag‘



yo‘naltirdi. Bu qadam keng aks sado berib, o‘zbek-ozarbayjon birodarligini xalqaro jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirdi. Bugungi kunda asosiy e‘tibor bir-birini to‘ldiruvchi iqtisodiyotlarni, birinchi navbatda, energetika, qurilish, mehmonxona biznesi va qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘shma loyihalar orqali rivojlantirishga qaratilmoqda. Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish quvvatlari, logistika markazlari va agrosanoat markazlarini barpo etish

kabi aniq investitsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston to‘qimachilik, meva-sabzavot, qurilish va metallurgiya sanoati bo‘yicha Ozarbayjonda nafaqat strategik hamkor, balki yangi bozorlarga chiqish yo‘lini ham topmoqda.

Transport va logistika aloqalari ham ikki tomonlama hamkorlikda alohida o‘rin tutadi. Global ta‘minot zanjirlarining o‘zgarishi sharoitida mamlakatlar yangi, barqaror yo‘nalishlarni qidiraypti. Shu fonda O‘zbekiston “Boku — Tbilisi — Kars” O‘rta yo‘lagining biridan foydalanishni faol ilgari surmoqda va Olyat portida o‘z terminalini qurishdan manfaatdor. Bu yo‘nalish shimoliy yo‘nalishlarga muhim muqobil bo‘lib, eksport va tranzit uchun qisqaroq va arzonroq yo‘nalishni taklif etadi. Ushbu yo‘lakning geografik ustunligi uning tekis relyefi bo‘lib, ko‘proq yuklarni kamroq vaqt va arzon narxda tashish imkonini beradi.

Aytish joizki, ushbu transport aloqasiga uchinchi davlatlar, jumladan, Xitoyning ham qiziqishi ortib bormoqda. Xitoydan Yevropaga dengiz orqali

yuklarni yetkazib berish 35-40 kun, Trans-Sibir yo‘nalishi bo‘yicha esa taxminan 20 kun davom etadigan sharoitida Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi va Janubiy Kavkaz orqali o‘tadigan Yevrosiyo quuruqlik yo‘li, ayniqsa, yuqori daromadli va vaqt talab qiladigan mahsulotlarni yetkazib berish uchun muhim jarayonga aylanishi mumkin.

Raqamli va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida innovatsiyalar, davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasi va “aqlli” qishloq xo‘jaligi sohalarida hamkorlikka qiziqish ortib bormoqda. Ikki mamlakat yoshlari ko‘shma loyihalar va almashinuylarga jalb etilgani yangi avlod o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikka zamin yaratadi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarini hozirgi beqaror xalqaro vaziyatda barqarorlik va o‘shish omiliga aylanib, tez o‘zgarib borayotgan yangi dunyo tartibini shakllantirishning yangi tendensiyalarini aks ettirmoqda.

“Dunyo” AA

## O‘ZBEKISTON FAXRIYLARINING IJTIMOIIY FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH “NURONIY” JAMG‘ARMASI FAOLLARINING MAMLAKATIMIZ YOSHLARI VA KENG JAMOATCHILIKKA MUROJAATI

### Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yili yurtimiz yoshlari “TOP-500”talik oliyoghlarga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egallagan, bugungi kunda 30 nafar yigit-qiz dunyodagi “TOP-10”, 500 nafari “TOP-100” va 1500 nafari “TOP-300”dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olayotgani, aziz farzandlarimiz san‘at, sport sohalarida ham katta muvaffaqiyatga erishib, yurtimiz bayrog‘ini yuksakka ko‘tarayotgani, orangizdan mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlash yo‘lida xizmat qilayotgan zabardast tadbirkorlar yetishib chiqayotgani, albatta, yurtimizda siz aziz yoshlarga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlarning samarasidir.

Mamlakatimizda sportni rivojlantirish borasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar tufayli o‘tgan yili Parij Olimpiadasi va Paralimpiya o‘yinlari g‘oliblari yangi O‘zbekiston sharafigi yuksakka ko‘tarib, qalblarimizni g‘urur va iftixorga to‘ldirgan bo‘lsa, yaqinda yana bir quvonchli xabar barcha yurtdoshlarimiz qalbiga bayram kayfiyatini olib kirdi — futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.

Prezidentimizning 30-iyun — Yoshlar kunida mamlakatimizning har guruh azmu shijoatli o‘g‘il-qizlari bilan uchrashuvi hamda eng faol va tashabbuskor yoshlarni davlat mukofotlari bilan taqdirlagan barcha yurtdoshlarimiz qatori biz kexsa avlod vakillarining ham qalbimizga bir olam g‘urur va iftixor baxsh etdi.

Davlatimiz rahbari: **“Birinchi va Ikkinchi Rennessansi buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermog‘da. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz.**

Sizlar — yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, deya siz, aziz farzandlarimizga yana bir bor yuksak ishonch bildirdi.

**Qadrlı yoshlar!** Prezidentimizning har biringizga bildirayotgan ishonchi, barcha sohalarda sizlarni qo‘llab-quvvatlayotgani, yuksak e‘tibori va g‘amxo‘rligi bugungi yutuqlaringiz garovidir. Yangi O‘zbekistonning munosib vorislari bo‘lib voyaga yetishingiz va baxtu kamolingiz yo‘lida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar va ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik avval hech bir davrda bo‘lmagan.

Bugun biz — kexsa avlod vakillari chin ma‘noda sizlarga havas qilamiz. Shunday paytlarda sevimli shoirimizning “Eh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...”, degan satrlari dilimizdan o‘tadi. Zero, biz, iste‘dodi ta olinmagan, qobiliyati qadrlanmagan, ishonch va umidi so‘ndirilgan avlod vakillari edik. Davlatning birinchi rahbari bilan uchrashib, unga orzularimizni aytish u yoqda tursin, viloyat yoki tuman, shahar rahbarlariga yuzma-yuz bo‘lish hatto bizning ota-onalarimiz, o‘qituvchi-murabbiylarimizga kamdan kam hollardagina nasib etardi.

Bizning o‘quvchilik va talabalik yillarimiz paxta dalalarida, og‘ir mehnatda o‘tgan. O‘sha davr bolalari salomatligini garovga qo‘yib, samolyotda zaharli dorilar sepilgan paykallardan paxta terishga majbur ed. Qanchadan qancha tengqurlarimiz sog‘lig‘ini boy berib, o‘sha yillarning og‘ir mehnati qurboni bo‘lganini haligacha qalbimizda qolgan jarohatlar bilan eslaymiz.

Yaratganga behisob shukrlar bo‘lsinki, siz — aziz yoshlarni yangi O‘zbekiston kelajagining bunyodkorlari deb e‘zozlagan, bolalar va yoshlar har bir yuragi mehnatning og‘ir oqibatlarini yurakdan his etgan Prezidentimiz katta shijoat bilan majburiy mehnatning barcha turlariga chek qo‘ydi. Sizlarning salohiyatingizni yuzaga chiqarish, o‘zingizni namoyon etib, barcha sohalarda yutuqlarga erishishingiz uchun juda katta imkoniyatlar davri boshlandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu kunlarga erishish yo‘lida jon fido qilgan minglab allomalarimiz, ziyolilarimiz, ma‘rifatparvar jadid bobolarimiz, qatag‘on qurboni bo‘lgan millat fidoyilarining xotiralari tiklandi. Millatimiz oydinlarining ona Vatanimizni dunyoda eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishdek ezaq orzularini yo‘yobga chiqarish endi sizlarning sharaflı burchingizdir!

Bugungi kunda mamlakatimizda bilim olishingiz, kasb-hunar egallab, baxtli-saodatli yashashingiz uchun yaratilayotgan har bir imkoniyat ortida katta siyosiy iroda, mashaqqatli mehnat, jonkuyarlik, fidoyilik va siz, aziz farzandlarimizga cheksiz mehr va g‘amxo‘rlik borligini, bu kunlarga oson erishilmaganini biz, kexsa avlod vakillari yaxshi bilamiz.

**Aziz o‘g‘il-qizlarimiz!**

Bugun bilimi va yutuqlari bilan dunyoga bo‘ylashib turgan, ona Vatanimiz sharafigi yuksakka ko‘tarayotgan sizdek azmu shijoatli yoshlar qatorida, afsuski, o‘qib-izlanish o‘miga turli noma‘qul ishlar bilan shug‘ullanib, bebaho boyligi — yoshlik davrini boy berayotgan yoshlarimiz ham uchrab turibdi. Mamlakatimiz mahallalarida muammoli 167 ming nafar yosh, tarbiyasi og‘ir va huquqbuzarlik sodir etgan 17 ming o‘quvchi bortligi barchamizni ogohlikka, atrofimizga yanada sergastroq nazar solishga undaydi.

Albatta, yoshlar tilini yoshlar tushunadi, tengdoshlaringiz muammolari haqida ularning ota-onalari va maktabdagi ustozlaringizdan avvalroq sizlar xabardor bo‘lasiz. Shunday paytda befarq bo‘lmang. Chunki bugun sizning ko‘z o‘ngingizda adashib, qon qilayotgan tengdoshingiz taqdiri ertaga bir kuni jamiyatning

eng og‘riqli muammosiga aylanishi mumkin. Ya‘ni kimkindir xatosi uning shaxsiy muammosi bo‘lib qolmaydi, u, albatta, jamiyatda o‘zining ayanchli oqibatlari bilan yuzaga chiqadi. Ziyraklik va ogohlilik bilan tengdoshlaringizni mudhish xatolar qilish va bolalardan asrang.

Aziz farzandlarimiz! **“Tengdoshim hayotiga befarq emasman”**, degan shiorni dilingizga tugib, atrofingizga ziyraklik bilan qarang. Sinfdoshingiz, maktabdosh qo‘shningiz bugun qanday mashg‘ulotlar bilan band, kimlar bilan do‘st tutinayotganiga, ijtimoiy tarmoqlarga qanday xabarlar joylayotganiga e‘tibor bering.

O‘zlari anglab-anglamay ijtimoiy tarmoqlarda millat sha‘niga putur yetkazadigan, tariximiz, qadriyatlarimizga bepisand bo‘layotgan tengdoshlaringizni to‘g‘ri yo‘lga boshlang. Internet va zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari qanchalik keng ekanini ularga uqtiring. Xato qilayotganini o‘zingiz kabi bilim olishga, kasb-hunar egallashga intilayotgan do‘stlaringiz safiga qo‘shib, ularni yutuqlar sari rahlantirish fuqarolik burchingiz ekanini unutmang.

**Qadrlı nuroniyalar!** **Piru badavlat bobolar va buvijonlar!**

O‘sib kelayotgan avlod tarbiyasida Prezidentimizning bizlarga bildirayotgan ishonchini oqlash, yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlab, bu yo‘ldagi islohotlarni hayotga yanada kengroq tatbiq etishda zimmasizlarga katta mas‘uliyat borligini unutmaylik!

Aziz bolajonlarimiz, nevara-evara va chevaralarimizning baxtu kamoli yo‘lida eng ko‘p mas‘uliyat siz va bizning zimmamizdadir. Chunki bugun ayrim yoshlar boshidan kechirayotgan sinovlarni biz allaqachon yengib o‘tganmiz. Hikmatga to‘la hayotiy tajribalarimiz bor.

Oilamizda, mahallamizda o‘sayotgan har bir o‘g‘il-qiz biz uchun begona emas. Birı nevaramiz, biri shogirdlarimizning farzandi, yana biri kelajakda farzandlarimiz bilan jon-jigardek tutashguvchi tomirlarimizdir.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan **“Bir nuroniy — o‘n yoshga mas‘ul” tamoyili asosida qilayotgan mehnatlaringiz natijasi kasb-korli bo‘lib, hayotda o‘z o‘rnini va qadrlini topayotgan aziz farzandlarimizning “Sizni ota desam maylimi, ona desam maylimi...”, degan so‘rovlarida o‘z hayotiy ifodasini topmog‘da.** Bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshiraylik. Atrofimizdagi muammoli yoshlar taqdiriga aslo befarq bo‘lmaydik.

Bolajonlarimizni maktab partasidayoq “Nuroniy soatlari”dagi tarbiyaviy darslarimiz jarayonida to‘liq qamrab olaylik. Ularga orzulariga yetishi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsataylik. Bu yo‘ldagi intilishini qo‘llab-quvvatlab, ishonch bildiraylik. Chunki bolaga bildirilgan ishonch uning katta muvaffaqiyati kaliti ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

El-yurtimiz koriga kamarbasta, yangi O‘zbekistonimiz tarqatqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lida fidoyi avlodni tarbiyalashda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ilgari surilayotgan izchil islohotlarga kamarbasta bo‘laylik!

**Aziz ota-onalar!** **Jonkuyar ustozlar!** **Mahalla faollari!**

Bugun barchamiz yangi O‘zbekistonda el-yurtimiz farovonligini ta‘minlash, davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, Uchinchi Rennessans poydevorini yaratish borasidagi izchil islohotlar va yangilanishlar jarayonida bevosita ishtirok etmoqdamiz.

Bu jarayonda, ayniqsa, bilimli, keng tafakkurli, barkamol yoshlarni tarbiyalash, ular o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish, voyaga yetmaganlar huquq va erkinliklarini ta‘minlash, qonuniy manfaatlarini muhofaza etish kabi muhim masalalarga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda.

**Davlatimiz rahbari farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida, vatanparvar shaxslar etib tarbiyalashdek mas‘uliyatli vazifani ado etishda sizni barcha yuksak ishonch bildirmog‘da.**

Bugun barchamizning oldimizda o‘g‘il-qizlarimizni vatanparvarlik ruhida, bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalash, mahallalarda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishdek muhim masala turibdi. Zero, bolaning begonasi bo‘lmaydi. Bugun o‘smirlik pallasida, hayot yo‘li boshida ko‘zlari joydirab, yo‘l to‘polmay turgan bolalarga mehr-e‘tibor bilan qaraylik. Ularning xato qilishiga, noto‘g‘ri yo‘lga kirib ketishiga yo‘l qo‘ymaylik. Atrofimizdagi bolalar va yoshlarning taqdiriga daxldor ekanimizni unutmaylik!

Dunyoda kechayotgan notinchliklar, ziddiyat va to‘qnashuvlar barchamizdan dorilamon kunlarning qadriga yetish, tinchligimizni ko‘z qorachig‘imizdek asrashni taqozo etmoqda. Dunyo siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar ta‘sirida qalqib turgan shunday paytda tinchlik-osoyishalik va yurtimizdagi to‘kin-sochinlik eng ulug‘ ne‘mat ekanini yoshlarga uqtiraylik.

Mahallamizda, ko‘z oldimizda o‘sayotgan har bir o‘g‘il-qizni dunyo ilm-fan sirlarini puxta egallayotgan tengdoshlari safida nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda yetuk mutaxassislar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha imkoniyat va resurslarni ishga solaylik. Bu yo‘lda zimmamizdagi ulkan mas‘uliyat va javobgarlikni his qilib, ona Vatanimiz manfaatlarini yo‘lida yanada birlashtaylik.

Farzandlarimizni shunday tarbiyalaylikki, ular hayotdagi har qanday sinov va qiyinchiliklarni shijoat va qat‘iyat bilan yengib o‘tib, Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiladigan, yangi O‘zbekistonning haqiqiy tayanchi va suyanchi bo‘la oladigan avlod bo‘lib ulg‘aysin!





# O‘zbekiston – Ozarbayjon: AGRAR SIYOSATNING MUVAFFAQIYATLI SAKKIZ YILI

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarida savdo-iqtisodiy integratsiya faollashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayonda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari alohida e‘tiborga loyiq. Xususan, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida salmoqli natijalarga erishilyapti.



Ibrohim ABDURAHMONOV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
qishloq xo‘jaligi vaziri

2017-2025-yillar davomida tomonlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini ko‘paytirish, qo‘shma agroklastlar barpo etish, ilg‘or texnologiyalar joriy qilish, logistika infratuzilmasini yaxshilash va ilmiy tadqiqot sohasida hamkorlik qilish yo‘nalishlarida qator muhim tashabbuslarni amalga oshirdi. Yuqori darajadagi siyosiy iroda, hukumatlararo kelishuvlar va iqtisodiy forumlar orqali agrar sohadagi integratsiya amaliy natijalarni berdi: savdo hajmi bir necha barobar oshdi, birgalikda ishlab chiqarish loyihalari yo‘lga qo‘yildi, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida strategik hamkorlik shakllandi.

Mazkur maqolada shu davr ichida O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, erishilgan natijalari va istiqbolidagi rejalarni keng qamrovda tahlil etishga harakat qilamiz.

2017-2025-yillar davomida ikki davlat o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi misli ko‘rilmagan darajada o‘tdi. Bunga erishish, bir tomondan, ikki davlat agrar sektorining iqtisodiy salohiyatiga asoslangan bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘zaro manfaatli tashqi savdo siyosati izchil yuritilayotgani bilan bog‘liq.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, shu yillar oralig‘ida ikki davlat o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdo hajmi 5 barobar oshdi. BMtning UN Comtrade tovarlar savdosi statistikasi ma‘lumotlariga asosan, 2022-yilda o‘zaro savdo hajmi 40,8 million AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa 2021-yildagiga nisbatan deyarli 2 barobar ko‘pdir. Ushbu raqamlar ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichga chiqqanini yaqqol tasdiqlaydi.

2022-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizning Ozarbayjonga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti 35,1 million dollarni tashkil etgan bo‘lib, eksport hajmi bo‘yicha O‘zbekiston yetakchi o‘rinda turdi. Asosiy mahsulotlar tarkibiga tamaki va tamaki o‘mini bosuvchi mahsulotlar, quritilgan mevalar (mayiz), yong‘oqlar (bodom, yer yong‘oq), oddiy loviya, shokolad va kakao mahsulotlari kirgan. Bular, asosan, qayta ishlangan va iste‘molga tayyor oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lib, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega. O‘z navbatida, Ozarbayjondan O‘zbekistonga import hajmi o‘sha yili 5,7 million dollari tashkil etdi. Ozarbayjonning eksport tarkibi asosan, funduk, bodom, o‘simlik yog‘lari, shokolad-kakao mahsulotlari, algogolsiz ichimliklar, chorva uchun ozuqa mahsulotlari hamda paxta urug‘idan iborat bo‘ldi. Bu mahsulotlar, asosan, qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirilgan va o‘zbek agrar klasterlari uchun xomashyo sifatida xizmat qiladi.

Joriy yil boshida e‘lon qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, ikki tomonlama savdo hajmi yana 40 foiz o‘tdi. Bu tendensiya hamkorlikning barqarorligini, bozordagi ehtiyoj o‘tib borayotganini va mahsulotlar raqobatbardoshligini namoyon etmoqda. Tomonlar o‘rtasidagi bo‘l o‘shish yo‘nalishlari hukumatlararo muzokaralar, soddalashtirilgan bojxona tartiblari, eksport-import sohasidagi

logistik imkoniyatlar yaxshilanishi va eng muhimi, o‘zaro ishonchli siyosiy-iqtisodiy munosabatlar tufayli yuzaga keldi.

O‘zbekiston — Ozarbayjon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rnatishini, balki sifat jihatidan ham yangilanishni, innovatsiyalarni joriy etishni, mahsulot yetkazib berish zanjiri uzluksizligini ta‘minlayotganini ko‘rish mumkin.

## Ortib borayotgan ko‘lam logistika xizmatini ham rivojlantirdi

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi ortib borishi o‘zaro yuk tashish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga katta turtki berdi. Mahsulotlarning o‘z vaqtida, xavfsiz va sifati yetkazilishi zamonaviy logistika tizimlarini joriy etishni talab qiladi. Bu borada 2020-yildan boshlab transport-logistika sohasi ikki tomonlama hamkorlik kun tartibining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston — Ozarbayjon transport aloqalari geografik jihatdan murakkab, biroq strategik jihatdan nihoyatda muhim bo‘lgan Transkaspik xalqaro transport yo‘lagi (Middle Corridor) orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘lak O‘zbekiston tovarlarini Ozarbayjon orqali Yevropa bozorlariga, shuningdek, Ozarbayjon mahsulotlarini Markaziy Osiyo bozorlariga yetkazish imkonini beradi. Bu yo‘nalishda multimodal transport tizimi — avtomobil, temiryo‘l, havo va dengiz yo‘llari orqali yuk tashish mexanizmlari shakllanmoqda.

2023-yil yanvar oyida Toshkentdan Bokuga ilk marotaba elektron hujjatlar asosida meva-



Bunday yondashuv, ayniqsa, buziluvchan mahsulotlar (gilos, anor, sabzavot, rezavorlar) savdosi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Mazkur tartiblar hukumatlararo qo‘mitaning 2025-yil iyun oyida Bokuda bo‘lib o‘tgan 14-yig‘ilishi doirasida muhokama qilinib, ilg‘or Yevropa tajribalarini joriy etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Logistika hamkorligiga mintaqaviy integratsiya jarayonlarining muhim omili sifatida qaramoqda. Bu yo‘nalishda Ozarbayjon Kaspiyo‘yi mintaqasida, O‘zbekiston esa Markaziy Osiyo yadro hududida joylashgan bo‘lib, ikki davlatning infratuzilma integratsiyasi keng ko‘lamli Yevroosiy bozorlariga chiqish imkonini beradi. Xususan, Xitoy — Markaziy Osiyo — Janubiy Kavkaz — Turkiya yo‘nalishi bo‘yicha “yangi ipak yo‘li” tashabbuslari doirasida agrar-logistik hamkorlik alohida o‘rin tutmoqda.

Umuman olganda, 2017-2025-yillar mobaynida O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini



sabzavot mahsulotlari tashish bo‘yicha sinov amalga oshirildi. Bu zamonaviy “raqamli transport” tashabbusi ikki davlat transport tizimlari integratsiyalashayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, tez buziluvchi mahsulotlar (yangi mevalar, sabzavotlar) uchun tezkor, xavfsiz va optimallashtirilgan logistika tizimi muhim ahamiyatga ega.

Ikki tomonlama hamkorlik doirasida Boku porti va unga tutash logistika zonalarida O‘zbekiston mahsulotlarini saqlash va tranzit qilish imkonini beruvchi zamonaviy omborxona-logistika markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, qo‘shma logistika kompaniyalarini tashkil qilish, yuklarni konteynerlarda yetkazish, bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish, raqamli kuzatuv tizimlarini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport-importi samaradorligi oshirilmoqda. Transport xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulotlar yetkazilishi vaqtini qisqartirish ikki tomonlama savdoni yanada raqobatbardosh qilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida “yashil yo‘lak” (green corridor) formatidagi bojxona nazorati tartiblari ishlab chiqilmoqda. Bu tizim agrar mahsulotlar uchun soddalashtirilgan deklaratsiya, tezkor laboratoriya nazorati, “bir darcha” tamoyiliga asoslangan tranzit hujjatlarini nazarda tutadi.

tashish, saqlash va eksport qilish infratuzilmasi jiddiy ravishda takomillashtirildi. Logistika zanjirlari raqamlashtirildi, tranzit yo‘laklar diversifikatsiya qilindi, hamkorlikka asoslangan infratuzilma loyihalari boshlangan.

## Ilm-fan va ilg‘or texnologiya — sohaning muhim yo‘nalishlari

Agrar sohadagi hamkorlik faqatgina savdo va logistika bilan cheklanib qolmay, ilm-fan, texnologiya hamda agrar ta‘lim yo‘nalishlarida ham chuqurlashmoqda. Bu integratsiya zamonaviy qishloq xo‘jaligi rivoji uchun zarur innovatsiyalar, ilg‘or tajriba almashinuvi va kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

2017-2025-yillar davomida ikki mamlakat bu sohada qator strategik hujjatlar imzolab, institutlararo aloqalarni yo‘lga qo‘ydi, qo‘shma tadqiqotlar boshladi. Jumladan, 2022-yil iyul oyida qishloq xo‘jaligi vazirlarining Turkiya davlatlar tashkiloti doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishida O‘zbekiston va Ozarbayjon agrar sektorda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga oid “yo‘l xaritasi” imzolandi. Ushbu hujjat qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, sug‘urtalash tizimini takomillashtirish, ipakchilik va subsidiyalari siyosatida tajriba

almashish kabi yo‘nalishlarni qamrab oldi.

Joriy yil bahorida esa O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligidagi bilim va innovatsiyalar milliy markazi direktori boshchiligidagi delegatsiya Ozarbayjonga rasmiy tashrif bilan borib, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan Ozarbayjonning Sabzavotchilik ilmiy-tadqiqot instituti o‘rtasida ilmiy hamkorlik memorandumini imzolandi. Bu kelishuv sabzavotchilikda seleksiya, biologik himoya va agrotekhnika tajribalar bo‘yicha ilmiy almashinuvlar uchun huquqiy asos yaratdi.

Ilmiy hamkorlikning muhim jihatlardan biri zamonaviy raqamli texnologiyalarni agrar sektorga integratsiya qilishdir. O‘zbekiston tomoni Ozarbayjonning fermerlar uchun “Elektron kabinet” tajribasini o‘rganmoqda. Bu tizim fermerlarga davlat xizmatlaridan foydalanish, subsidiyalari olish, hisob-kitoblar yuritish va bozor ma‘lumotlariga ega bo‘lish imkonini beradi.

Bundan tashqari, har ikki davlat “aqlli” dehqonchilik (smart farming) tamoyillarini joriy qilishda o‘zaro hamkorlik qilmoqda. Yerlarni dronlar orqali monitoring qilish, GPS asosida urug‘ ekish, sun‘iy intellekt yordamida hosildorlik prognozini tuzish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-amaliy tajribalar almashilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro almashinuv dasturlari bor. Masalan, Toshkent davlat agrar universiteti va Ozarbayjon davlat agrar universiteti o‘rtasida tuzilgan memoranduma muvofiq, 2023-2025-yillarda ikki tomonlama talabalar va doktorantlar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Bu hamkorlik agrar soha bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash, ilmiy maqolalar nashr qilish, xalqaro loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Ozarbayjonning agrar universitetlarida anor, uzumchilik, yong‘oq yetishtirish, suv tejovchi texnologiyalar bo‘yicha laboratoriyalar faoliyati bilan yaqindan tanishyapmiz. Ayni paytda Toshkentda intensiv bog‘dorchilik, agrologistika, oziq-ovqat sanoatida standartlashtirish bo‘yicha tahsil olayotgan ozarbayjonlik magistrlar soni ortib bormoqda.

Agrar innovatsiyalarni tijoratlashtirish, startap ekotizimini rivojlantirish ham ikki davlat hamkorligida ustuvor yo‘nalishlardan biridir. “Smart Greenhouse”, “AgroDrone”, “Digital Field Management” kabi startaplar Toshkent va Boku shaharlarida bo‘lib o‘tgan forumlarda taqdim etilib, texnologik transfer bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Ayniqsa, iqlim o‘zgarishiga mos innovatsion texnologiyalar, biofertilizatorlar (bivo‘g‘itlar), genetik seleksiya usullari, yer osti sug‘orish texnologiyalari kabi ilmiy loyihalar doirasida ikki tomonlama grantlar ajratilishi muhim yangiliklardan biridir.

## Samarali qo‘shma loyihalar

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi agrar sohadagi hamkorlikda eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri qo‘shma agroklastlar tashkil etish va fermer kooperatsiyalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2017-2025-yillar davomida bu borada aniq investitsiyaviy tashabbuslar, ishlab chiqarish va qayta ishlab loyihalar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan amaliy sa‘y-harakatlar qilindi.

Agroklastlarlar bir vaqtning o‘zida yetishtirish, qayta ishlash, logistika va eksport

bosqichlarini yagona zanjirga birlashtiruvchi tizim bo‘lib, ikki davlat agrar strategiyasining markaziy komponentiga aylandi. 2021-yilda Ozarbayjonning “Fruits Season Group” kompaniyasi O‘zbekistonda o‘z investitsiyasi asosida agroklaster loyihasini boshladi. Xususan, Namangan va Toshkent viloyatlarida 10 gektar zamonaviy issiqxona va 100 gektar intensiv bog‘dan iborat klasterlar barpo etish rejalashtirildi. Bu loyihalarda tomchilab sug‘orish, zamonaviy sovitish texnologiyalari, GIS analitik tizimlar joriy qilindi.

Buxoro viloyatida tashkil etilgan agroklastlar faoliyati Ozarbayjondan kelgan agrar delegatsiyalar e‘tiborini tortdi. Bu klasterlarda anor, olxo‘ri, shaftoli, sabzavot, yong‘oqli murabbo, muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlar, ekologik toza sharbatlar ishlab chiqarilmoqda.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida kooperatsiya tizimini joriy etishda Ozarbayjonning ilg‘or tajribasidan foydalanmoqda. Natijada 2023-2024-yillarda Samarqand, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida pilot loyiha sifatida tashkil etilgan fermer kooperatsiyalari Ozarbayjon modeli asosida ishlab chiqildi. Bu tizim kichik fermer xo‘jaliklarini birlashtirish, agrotekhnika xizmatlarini bir markazda ko‘rsatish, qo‘shma marketing va eksportni tashkil qilishga imkon berdi.

Ikki davlat hududlarida issiqxonalar, plantatsiyalar va zamonaviy qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi doirasida hamkorlik kengaymoqda. Jumladan, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysi hududlarida Ozarbayjon texnologiyasi asosida “aqlli” issiqxonalar sinov tariqasida qurildi.

Andijon va Ganja shaharlari o‘rtasida anor va funduk plantatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha birgalikdagi ilmiy-amaliy tajriba loyihalari boshlangan. 2023-2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston tomoni anor seleksiyasi va bo‘chat yetishtirish texnologiyasini Ozarbayjonga eksport qilgan bo‘lsa, Ozarbayjon tomoni fundukchilik, vinochilik va bog‘dorchilikda o‘z tajribasini ulashdi.

Toshkent va Boku shaharlarida o‘tkazilgan tadbirkorlar forumlari davomida turli yo‘nalishlardagi sanoat klasterlari, qayta ishlash sexlari, qadoqlash liniyalari tashkil etish bo‘yicha qator qo‘shma tashabbuslar ilgari surildi.

## Raqamli texnologiya — yana bir ustuvor yo‘nalish

Zamonaviy agrar siyosatning ajralmas qismi sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruvni takomillashtirish O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlikda ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoldi. 2017-2025-yillarda ikki davlat qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, “aqlli” femalar barpo etish, sun‘iy intellekt va IoT (Internet of Things) texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha muhim qadamlar tashladi.

Ozarbayjon qishloq xo‘jaligida faol ishlatilayotgan “Elektron fermer kabine” tizimi O‘zbekistonda katta qiziqish uyg‘otdi. Bu platforma fermerlarga onlayn rejimda davlat xizmatlaridan foydalanish, subsidiyalari uchun murojaat qilish, statistik hisobotlarni topshirish, ekinlarni rejalashtirish va bozordagi narxlar dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

2024-yildan boshlab O‘zbekiston ushbu model asosida o‘zining “Agroxizmat” platformasini ishlab chiqishga kirishdi va Ozarbayjon mutaxassslarini maslahatchi sifatida jalb qildi.

“Aqlli” texnologiyalar (smart technologies) va “Internet of Things” texnologiyalari asosida yuritilayotgan dehqonchilik ikki mamlakatda ham tajriba bosqichidan boshlab amaliy qo‘llanilmoqda. Yer namligi, harorati va o‘g‘it holatini aniqlovchi sensorlar, sug‘orish tizimini avtomatik boshqaruvchi dasturiy quurilmalar, GPS asosida harakatlanuvchi “aqlli” traktorlar va texnika vositalari, drondan foydalangan holda urug‘ sepih, dezinfeksiya va monitoring qilish texnologiyalari shular sirasidan.

Bu texnologiyalar, ayniqsa, suv tanqis hududlarda hosildorlikni, mehnat unumdorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda sezilarli samara bermoqda.

Sun‘iy intellekt (AI) yordami bilan yer resurslarining raqamli xaritasini tuzish, agroklastlar bo‘yicha hosildorlik prognozini tahlil qilish, o‘simliklar kasalliklarini aniqlash va zararkunandalarga qarshi kurashish bo‘yicha modellar ishlab chiqildi.

Surxondaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida tashkil etilgan zamonaviy issiqxonalar Ozarbayjon texnologiyalari asosida masofadan boshqariladigan iqlim nazorati, avtomatik o‘g‘itlash, yorug‘lik va havo aylanishini tartibga solish kabi tizimlar bilan jihozlandi. Bu issiqxonalar AI yordamida mahsulotlari yetilish sur‘atini tahlil qilib, optimal hosildorlikka erishishga yordam bermoqda.

Xalqaro standartlarga javob beruvchi mahsulot eksporti uchun mahsulot sifatini onlayn tarzda sertifikatlash, raqamli QR-kodlar orqali kuzatuv tizimini joriy etish bo‘yicha ham hamkorlik kengaymoqda.

## Hamkorlikning asl asosi

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi agrar hamkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirishda asosiy omillardan biri **yuqori darajadagi siyosiy iroda, davlat rahbarlarining o‘zaro tashriflari, hukumatlararo kelishuvlar** va doimiy muloqot mexanizmlarining faol ishlashidir. Shular asosida ikki davlat o‘rtasida o‘nlab rasmiy tashriflar, forumlar, komissiyalar yig‘ilishi tashkil etilib, har biri yangi istiqbolli yo‘nalishlarga yo‘l ochdi.

2023-yil avgust oyida Prezidentimizning ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi doirasida energetika, sanoat, transport-logistika, farmatsevtika va **agrar soha** bo‘yicha qator strategik bitimlar imzolandi. Ayniqsa, agrosanoat loyihalari, o‘simlik yog‘i va paxta klasterlari, meva-sabzavot eksportini kengaytirishga qaratilgan kelishuvlar e‘tiborga loyiq bo‘ldi.

2024-yil avgust oyida esa Ozarbayjon Prezidentining O‘zbekistonga javob tashrifi davomida **hududlararo iqtisodiy integratsiya, agrar infratuzilmani modernizatsiya qilish, qo‘shma ilmiy loyihalar va kooperatsion klasterlar** bo‘yicha yangi bitimlar imzolandi. Muloqot davomida Prezidentlar ikki tomonlama savdo hajmini 1 milliard dollarga yetkazish, uning kamida 30-40 foizini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil etishini rejalashtirishganini bildirgan edi.

Ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiya O‘zbekiston va Ozarbayjon agrar hamkorligini huquqiy va tashkiliy asosda muvofiqlashtiruvchi asosiy platformalardan biridir. O‘tgan oyda Bokuda tashkil etilgan navbatdagi, 14-yig‘ilishda yangi qishloq xo‘jaligi loyihalari, ilg‘or texnologiyalarni transfer qilish, logistik zanjirlarni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

2025-yil 20-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan III Interregional forum ham ikki tomonlama agrar aloqalarni kuchaytirishda muhim bosqich bo‘ldi. Forumda davlat idoralari, xususiy sektor vakillari va xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida **investitsion loyihalar, kooperatsion dasturlar va sanoat-agrar komplekslarni rivojlantirish** masalalari ko‘rib chiqildi. Forum yakunida O‘zbekistonning bir necha viloyatida Ozarbayjon investitsiyasi bilan qishloq xo‘jaligiga oid yangi klaster loyihalari yo‘lga qo‘yilishi e‘lon qilindi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham ikki davlat keng miqyosda agrar hamkorlik qilmoqda. 2022-yil iyulda qishloq xo‘jaligi vazirlari yig‘ilishi doirasida qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish va innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” imzolandi. Bu hujjat ikki davlat uchun umumiy strategik yondashuv asosida ishlab imkonini yaratdi.

O‘zaro hujjatlar va shartnomalar agrar hamkorlikni tizimli tarzda yuritish uchun zarur huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Umuman, 2017-2025-yillar davomida qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy-texnik hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum, agrosanoat mahsulotlari eksport-importi bo‘yicha kelishuv, raqamli transformatsiya va “aqlli” fermerlik loyihalari bo‘yicha niyat protokollari, agroklastlar va investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha shartnoma singari hujjatlar imzolangan iikki davlat agrar siyosatini sinxronlashtirish, amaliy faoliyatda huquqiy ziddiyatlarni oldini olish va uzoq muddatli barqaror hamkorlikka zamin yaratadi.

2017-2025-yillar davomida O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, an‘anaviy savdo aloqalaridan boshlab zamonaviy agroklastlar, ilmiy-texnologik almashinuvlar, raqamli transformatsiya va qo‘shma ishlab chiqarish loyihalarigacha bo‘lgan keng qamrovli kooperatsion model shakllandi. Ushbu strategik sheriklik nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki siyosiy ishonch, hududlararo integratsiya va innovatsion rivojlanishga asoslangan barqaror tizim sifatida namoyon bo‘ldi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasi strategik tarmoqlardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Mazkur soha nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini shakllantiradi, balki ish o'rinlarini yaratish, tashqi savdo balansi va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim vositadir. Xizmatlar sektori iqtisodiyotning boshqa sohalari — sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va hatto davlat boshqaruvi bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlab beradi.



## XIZMATLAR SOHASI:

# BOZORLARNING YANGI XARITASI SHAKLLANMOQDA

Bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar, logistika, moliyaviy xizmatlar, turizm, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlar rivojiga mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni belgilovchi omillardan biri sifatida qaralmoqda. Jahon amaliyoti shundan dalolat bermoqdaki, yuqori daromadli davlatlar yalpi ichki mahsulotining 60-80 foizgacha qismi aynan xizmatlar sektori hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa ayni sohani nafaqat iqtisodiy resurs, balki strategik ustuvorlik darajasiga olib chiqadi.

Yurtimizda raqamli xizmatlar, elektron tijorat, bank va moliya texnologiyalari, turizm, ta'lim hamda transport-logistika sohalari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinishi ortidan ular iqtisodiyotimizning asosiy drayverlaridan biriga aylandi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari 2017-2024-yillar davomida xizmatlar sohasi rivojini tahlil qildi. Unga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib, xizmatlar sohasi O'zbekiston yalpi ichki mahsulot tarkibida 47,4 foizni tashkil etdi. 2020-yilda bu ko'rsatkich 41,6 foiz bo'lgan.

Xizmatlar sohasi kengayishi sanoat va qishloq xo'jaligiga qaraganda kamroq resurs talab qilsa-da, aholi ehtiyojlariga yaqin turishi, tez o'zgarishlarga moslasha olishi bilan farqlanadi. Shuning uchun bu tarmoq iqtisodiyot samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

2017-yilda xizmatlar sohasidagi bandlik darajasi 49,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 55,4 foizga yetdi. Bu o'sish mamlakatda xizmatlar sektori tomonidan yaratilgan ish o'rinlari soni ko'payganini, shu orqali aholi o'rtasida ishsizlik darajasini pasaytiradigan mexanizm sifatida xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va xizmat ko'rsatishga moyil bo'lgan

kasb egalari uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar soni 310,8 mingga yetdi. Bu 2017-yildagidan 1,6 barobar ko'p.

Bu o'sish, avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish, elektron xizmatlar platformalarini keng joriy etish hamda aholining shaxsiy tashabbusi ortib borayotgani bilan bog'liq. Xizmatlar sohasi o'sishi nafaqat YIMdagi ulush va bandlikni oshirmoqda, balki mamlakat aholisining kundalik hayotiga yaqin bo'lgan turli yo'nalishlarda sifatli, tezkor va raqobatbardosh yechimlarni taklif etayotir. Bu tarmoq raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq rivojlanmoqda va innovatsiyalarni qabul qilish qobiliyati yuqori.

Global iqtisodiyotda xizmatlar sohasi tobora muhim o'rin egallashi, raqamli texnologiyalar, moliyaviy instrumentlar va inson kapitaliga investitsiyalar soha ulushini keskin oshirdi. O'zbekiston ham bu tendensiyadan chetda qolgan yo'q. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2023-yillar davomida O'zbekistonda xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatning o'rtacha yillik o'sishi 6,5 foizni tashkil etgan. Bu Markaziy Osiyodagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Jahon banki tahlillariga ko'ra, mazkur ko'rsatkich Qozog'iston (2,5 foiz), Qirg'iziston



(3,1 foiz) va Tojikiston (5,2 foiz) kabi qo'shni davlatlarimizdan ancha yuqori. So'nggi sakkiz yil davomida mamlakatimizda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmi 2,5 barobar oshgan. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar 7,6 barobar, axborot va aloqa xizmatlari 4,9 barobar, ta'lim xizmatlari 3,2 barobar o'sishi yurtimizda raqamli transformatsiya, iqtisodiy erkinlashuv

va bilimli kadrlarga ehtiyoj oshganini ko'rsatadi. Xalqaro baholashlarda O'zbekistonning pozitsiyasi mustahkamlanmoqda. 2023-yilda e'lon qilingan Xalqaro xizmatlar joylashuvi indeksida (GSL) mamlakatimiz 78 ta davlat orasida 40-o'rinini egalladi. Unda biznes uchun moliyaviy jozibadorlik darajasi yuqori baholandi. Shuningdek, Raqamli boshqaruv

yetuklik indeksida (GTMI, 2024) O'zbekiston 43-o'rinini egallab, 2020-yildagidan 37 pog'ona yuqoriladi. Elektron ishtirok indeksida esa 53-o'ringa ko'tarildi va 0,699 indeks bahosi bilan raqamli xizmatlari taraqqiy etgan davlatlar qatorida mustahkam o'rin egalladi.

Raqamlashtirish jarayonlari va onlayn xizmatlar rivoji natijasida axborot va elektron savdo sohalari ulushi 2017-yildagi 2,2 foizdan 3,7 foizgacha oshdi. Elektron tijorat bozori hajmi esa 1 milliard AQSH dollaridan oshgani internet orqali iqtisodiy faollik shiddat bilan o'sib borayotganini ko'rsatadi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki jamiyatning raqamli madaniyati va ko'nikmalari o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Sayyohlik xizmatlari esa eng tez o'suvchi yo'nalishlardan biriga aylandi. 2017-yildan buyon ularning hajmi 2,1 barobar oshgan. 2024-yilda turizm xizmatlar sohasida eng katta ulush — 22,4 foizni tashkil etdi. Shu yili O'zbekiston 8 million sayyohni qabul qildi va Markaziy Osiyoda sayyohlar oqimi o'sishi bo'yicha 1-o'rinini egalladi. O'sish sur'ati yiliga 20,1 foizni tashkil etdi. Turizm va sayohatlar

rivojlanish indeksida (TTDI) yurtimiz 119 davlat orasida 78-o'rinini egallab, 2024-yilning o'zida 16 pog'ona yuqoriladi. Bu natijalar turizm infratuzilmasi, raqamli xizmatlar (onlayn band qilish, virtual turlar) hamda viza rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirilishi (e-visa) bilan bog'liq.

O'zbekiston logistika sohasida ham o'z pozitsiyalarini yaxshilamoqda. Logistika samaradorligi indeksida (LPI) 139 davlat orasida 88-o'rinini egalladi va 2018-yildagidan 11 pog'ona yuqoriladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida 5-o'rin, Markaziy Osiyoda esa 2-o'rin qayd etildi. Eng katta o'sish bo'xona jarayonlari samaradorligi, xalqaro savdodagi logistika zanjirlarining integratsiya darajasi va logistika xizmatlari sifati bo'yicha kuzatildi.

2024-yilda xizmatlar eksporti 7,2 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2017-yildagidan 6 barobar ko'p bo'lib, umumiy eksport hajmining 26,7 foizini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibida asosiy ulushni turizm (3,5 milliard dollar — 48,8 foiz) va transport (2,6 milliard dollar — 35,7 foiz) tashkil qildi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro xizmatlar bozorida o'zni tobora mustahkamlanayotganini anglatadi.

Iqtisodiy taraqqiyot faqat sanoat yoki qishloq xo'jaligi bilan emas, balki xizmatlar sektoridagi islohotlar va innovatsiyalar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Xizmatlar sohasi inson kapitaliga, bilim, axborot va kommunikatsiyalarga tayanadigan zamonaviy iqtisodiyotning yuragidir. U jamiyatning madaniy, ma'rifiy va intellektual darajasini belgilab beruvchi asosiy mezoniga aylanib bormoqda. Agar ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, IT, turizm va boshqa xizmatlar sohalari rivojlansa, nafaqat iqtisodiy o'sish, balki inson farovonligining ham ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Yurtimizda xizmatlar sohasida kuzatilayotgan yuqori o'sish sur'atlari iqtisodiyotning diversifikatsiyalanayotganini, ya'ni faqat bir necha tarmoqqa emas, balki keng qamrovli va barqaror rivojlanishga intilishni ko'rsatadi. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun davlat siyosatining shaffofligi, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqamli infratuzilmani kengaytirish va inson kapitaliga investitsiya qilish ustuvor vazifa bo'lib qolishi kerak.

**Sardor TOLLIBOYEV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



## Hayotiy tashabbuslar qanotida

# XIRMONGA BARAKA, XALQQA XOTIRJAMLIK KELTIRGAN ISLOHOTLAR

Yaqinda gurunglarimizdan birida tegirmon haqida so'z ketdi. Davradoshimiz bug'doy uchun tegirmon qidirgani, ammo mahallasidan ham, qo'shni mahallalardan ham topilmagach, yuz kilometr uzoqqa, o'zi tug'ilib o'sgan qishloqdagi tegirmonga olib borganini aytdi.

— Bunga xursand bo'lish kerak, Shermatboy, — deya gapga qo'shildi to'rtinchi o'rtinchi o'soq. — Bularning hammasi yurtimizdagi to'kinlikdan darak-ku. Do'konlarimiz un bilan to'la, odamlarda bug'doy saqlab, un qildirishga ehtiyoj yo'q. Oldin kimning uyida bir yilga yetadigan bug'doy bo'lsa bo'lsa boy hisoblanardi. Xavotirsiz yashardi. Bugun bug'doyning bor-yo'g'i hech kimga qiziq emas. Bu odamlarning topishidan baraka bor, elning ertasidan ko'ngli to'q degani.

Mo'ysafidning turmush tarzimiz qanchalik o'zgargani haqidagi xulosasiga barcha birdek qo'shildi. Gap keyingi yillardagi o'zgarishlar mavzusiga burildi. Men esa beixtiyor non haqida o'ylay ketdim. Ha, non xalqimizning asosiy iste'mol mahsuloti hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda aholini arzon va sifatli un bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Avval g'alla mustaqilligiga erishgan edik. Ochiq tan olish kerak, o'shanda aholi yetarli darajada un bilan ta'minlanmagan edi. Bozordan un sotib olishga aholining asosiy daromadi sarf etilardi. O'zimizda ishlab chiqarilgan va arzon un esa bir oyda aholi jon boshiga ikki yarim-uch kilo dan berilardi, xolos.

Davlat zaxirasidagi unning katta qismi non va non mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarga berilardi. Ayrim hollarda bu korxonalar ishlab chiqarishni ikkinchi darajaga tushirib, unning o'zini “gora bozor”da sotib, daromad qila boshladi. Bu, o'z navbatida, korrupsiyaga yo'l ochdi. Soxta non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil

etilib, davlat narxi belgilangan arzon ularni olib, qariyb bir barobar qimmatga sotish urfga aylandi.

Shu kabi omillar sabab qishloq aholisi g'alla mavsumida bug'doy sotib olishga majbur edi. Har bir mahallada kamida bitta, bo'lmasa ikki-uchtadan tegirmonlar ishlardi. Ko'p odamlar bug'doy uchun fermerlarga oldindan pul to'lab qo'yardi. Ba'zan esa bechora fermerlarning o'ziga ham ortiqcha bug'doy qolmasdi.

— G'alla mustaqilligiga endi to'liq erishdik desak mubolag'a bo'lmaydi, — dey-



**“Ha, dehqon boy bo'lsa, xalq boy, yurtida to'kinlik va farovonlik bo'ladi. Agar dehqon mehnatidan manfaat topsa, yerga mehr berib ishlaydi, hosildorlik oshadi. Bu, o'z navbatida, mo'l-ko'pchilik, arzonchilik va farovonlikka xizmat qiladi. Bunga Jizzax viloyati g'allakorlarining 2025-yilda g'alladan mo'l hosil olganini ham misol qilish mumkin.**

di Mirzacho'l tumani Yangidala mahallasida yashovchi Shodi Atayev. — Aholining bug'doyga, unga nisbatan “ko'zi to'ydi”. Do'konlarimiz, bozorlarimiz o'zimizda ishlab chiqarilgan turli yorliqdagi sifatli un bilan to'la. Muhimi, hamyonbop. Hozir hech kimda bug'doy, un qimmat bo'larkan degan xavotir yo'q. To'g'ri, odam tez unuadi. Ammo o'tgan og'ir kunlarni eslab, bugungi farovon

hayotning qadriga yetib, shukronalik bilan yashashga nima yetsin. Kechagidek esimda, yurtidoshlarimiz majbur bo'lgani uchun hali pishib yetilmagan g'allaning maydoniga oralab, boshog, o'rim vaqtida esa bug'doy yuklangan mashinalarga osilib qoplab don o'g'irlardi. Yurib ketayotgan ulovdan don tushirish ilinjida yiqilib qo'l-oyo'g'i singan, hatto halok bo'lganlar ham bor.

To'g'ri, o'shanda o'tish davrining og'ir kunlari edi. Lekin keyinchalik ham hozirgiday to'kinlik bo'lmagan. Chunki qishloqlarda ish yo'q, daromad topish qiyin edi.

Keyingi yillarda yurtimizda boshqa sohalarda qatorida g'alla bozoriga ham erkinlik berildi. 2022-yil 28-mayda Prezidentimizning “G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Hech shubhasiz, ushbu qaror sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Fermerlarda yerga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Bu g'alla hosildorligini yanada oshirishga, mehnatiga yarasha daromad topishga bo'lgan intilishni kuchaytirdi.

To'g'ri, o'sha paytda xalq orasida endi un, qolipli non (buxanka) narxi oshar ekan degan gap-so'zlar ko'paydi. Ammo bu gap-so'zlar asossizligi, vahimaga o'rin yo'qligi o'sha yilning o'zida ma'lum bo'ldi.

O'zim uzoq yillar fermer xo'jaligi raisi bo'lganman. Hozir fermer xo'jaligimizni o'g'lim boshqaradi. Yuqorida aytilgan qaror

bilan g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilishi fermerlarga manfaatli bo'ldi. Belgilangan rejani birja orqali, ortqanini erkin bozor narxida sotyapti. Avval fermer ko'proq iqtisodiy manfaat olish uchun g'alla va paxtaga ajratilgan yerga yashirincha poliz va boshqa ekinlar ekardi. Bugun sohadagi islohotlar sabab, g'alla va paxtaning o'zi manfaatli mahsulotga aylandi.

Darhaqiqat, bunday o'zgarishlar sabab bugun mamlakatning g'alla zaxirasiga ko'proq hosil berilyapti. Natijada non va non mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qoplash ham sezilarli darajada o'zgardi. Chunki fermerlar don topshirib ham yaxshi foyda topishiga ishonmoqda. Buni fermerlarimizning o'zi ham e'tirof etmoqda.

— Joriy yil 60 gektarga g'alla ekkdik, — deydi Do'stlik tumanidagi “Vorison davr” fermer xo'jaligi raisi Diyov Jo'rayev. — 90 sentnergacha hosil oldik. Shu tariqa xirmonimiz donga to'ldi. Qayerda iqtisodiy manfaat bo'lsa, o'sha joyda yuksalish, taraqqiyot bo'ladi. Avval shartnomaviy rejani to'zrg'a bajargan bo'lsak, bugun qarang, ixtiyorimizda gektaridan deyarli 50 sentnergacha g'alla qolyapti. Suv, mineral o'g'it, yoqilg'i mahsulotlaridan umuman muammo yo'q. Buni hisobga olib, g'alladan bo'shagan yerlarga takroriy ekin ekkdik. Bugun haqiqiy dehqonning zamoni keldi desam, mubolag'a bo'lmaydi. Mehnatimiz ortidan kelgan halol daromaddan turmushimiz obod, dasturxonimiz to'kin bo'lyapti.

Ha, dehqon boy bo'lsa, xalq boy, yurtida to'kinlik va farovonlik bo'ladi. Agar dehqon mehnatidan manfaat topsa, yerga mehr berib ishlaydi, hosildorlik oshadi. Bu, o'z navbatida, mo'l-ko'pchilik, arzonchilik va

farovonlikka xizmat qiladi. Bunga Jizzax viloyati g'allakorlarining 2025-yilda g'alladan mo'l hosil olganini ham misol qilish mumkin.

— Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilda viloyat g'allakorlari 88,1 ming gektar suvli va 100 ming gektarga yaqin lalmi maydonda bug'doy parvarishlab, suvli maydonlarning har gektaridan o'rtacha 70-80 sentnerdan hosil ko'targan. Suvli yerlardan barakali hosil yetishtirishda Paxtakor, Do'stlik, Arnasoy, lalmida esa Yangiobod, Baxmal va Zomin kabi tumanlarning hissasi katta bo'lgan. Ayniqsa, 100 dan ziyod fermerning fidoyilik ko'rsatib, har gektar g'alladan 90-100 sentnerdan xirmon ko'targani tahsina sazovordir. Bu katta natija!

Bu borada Paxtakor tumanidagi “Anvar A”, Do'stlik tumanidagi “Asal momo”, Arnasoy tumanidagi “Suyunov Sardor dalasi”, Zafarobod tumanidagi “Yangi tong”, Sharof Rashidov tumanidagi “Qo'rg'ontepa”, Mirzacho'l tumanidagi “Botir Islom”, Zarbdor tumanidagi “Musurmon dov”, Zomin tumanidagi “Bek” fermer xo'jaliklari yuqori hosildorlikka erishgan.

Viloyat g'allakorlari mavsum yakuni bilan jami 850 ming tonna g'alla ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Bu o'tgan yilgi hosildan 150 ming tonna ko'p degani. Bugun butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Dunyodagi turli ziddiyatlar, iqlim o'zgarishi kabi omillar oziq-ovqat taqchilligi, narxlar oshishiga olib kelyapti.

Shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha samarali ishlar qilinaotgani odamni quvontiradi. Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi so'zlari yodga tushadi: “Umuman, xalqimiz xotirjam bo'lishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish va ularni bozorga uzluksiz yetkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta'minlash ishlariga ustuvor darajada e'tibor qaratiladi. Buning uchun Hukumat va hokimliklar tomonidan barcha choralar ko'rilib hamda bu masala Prezidentning doimiy nazoratida bo'ladi”.

Bugungi natijalar, xirmonlarimiz donga to'lgani, to'kinlik, umuman, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqimiz xavotirsiz yashayotgani ushbu so'zlarimiz amaldagi tasdiq'idir.

**Farhod NE'MATOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri





## YANGI O‘ZBEKISTON

# SUN'IY INTELLEKT

## TA'LIM UCHUN TAHDIDMI YOKI IMKONIYAT?

Yangicha yondashuvlar

Zamonning shiddatli rivoji zamirida sun'iy intellekt deb atalmish yangi yo'nalish paydo bo'lib, hozir inson qo'li yetgan va hatto yetmagan har qanday joyga kirib boryapti. Tibbiyotdan tortib, biznesgacha, kundalik hayotni tartiblashtirishdan mukammal masalalar yechimini topishgacha bo'lgan sohalarda u mavjud.



**Shahzod SAYDULLAYEV,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Ayni chog'da sun'iy intellektning inson hayoti va jamiyatga ta'siri haqidagi bahs-munozaralar kundan kunga kuchayib borayotgani ham bor gap. Olimlarning bir qismi mazkur texnologiyani olqishlayotgan bo'lsa, ayrimlari uni real tahdid hisoblamogda.

Uning eng katta ta'siri ta'limda sezilyapti. Ya'ni u ta'limni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish barobarida salbiy ta'sir ham ko'rsatmogda. Xususan, yaqin yillarda chat-botlar, robotlar va sun'iy intellekt o'qituvchilar o'rmini bosishi mumkin. Qolaversa, sun'iy intellekt o'qituvchilarning topshiriqlarni baholash vaqtini 70 foizgacha qisqartiradi.

Sun'iy intellektning ta'limdagi eng katta yutuqlaridan biri o'quv jarayonini har bir o'quvchiga moslashtirish imkoniyatidir. Ilgari o'qituvchi bir guruh o'quvchilarga bir xil dars rejası asosida ta'lim bergan bo'lsa, endi sun'iy intellekt yordamida har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va o'zlashtirish darajasiga mos darslar tuzilmogda. Masalan, o'quvchining qaysi mavzuda qiyinalayotganini aniqlagan holda sun'iy intellekt ularga qo'shimcha mashqlar yoki tushuntirishlar taklif qila oladi. Bu, ayniqsa, sinfda turli darajadagi

o'qituvchilar ham akademik halollik tamoyillariga rioya etmagan holda keng foydalanmogda. Xususan, bugungi kunda ilmiy maqolalar, o'quv adabiyotlari, taqrizlar, hatto dissertatsiya ishlari ham sun'iy intellekt yordamida yozilmogda. Aslida, bunda sun'iy intellektidan foydalanmaslik bo'yicha hech qanday taqiq yo'q, biroq akademik halollik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, manbasi noaniq ma'lumotlarni ilmiy xulosa sifatida keng jamoatchilikka taqdim etish hech qaysi qoidaga to'g'ri kelmaydi.

Sun'iy intellektning yana bir jihati axloqiy masalalarga borib taqaladi. Ya'ni u shaxsiy ma'lumotlarni qay darajada himoya qila oladi? Bu savolga hozircha hech qanday javob yo'q va bu holat xavotirli. Sababi, texsigantlar sifatida e'tirof etilgan Google, Facebook va internet bilan bog'liq boshqa maydonlar paydo bo'lish va rivojlanish davrida barchaga xavfsizlikka qat'iy rioya qilishi haqida bong urishgandi. Vaholanki, zamon o'zgarib, hatto shaxsiy messengerlar ham foydalanuvchilar ma'lumotlarini xavfsiz saqlay olmayapti.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalar va ustozlar ta'lim jarayonida



bilimga ega o'quvchilar bo'lsa, juda foydali.

Sun'iy intellekt nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilarga ham katta yordamchi vazifasini o'tamogda. Masalan, u orqali dars rejalarni tuzish, testlarni baholash yoki o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish kabi ko'p vaqt talab etadigan vazifalar avtomatlashadi. Bu o'qituvchiga o'quvchilar bilan ko'proq vaqt o'tkazish va ularga individual yondashish imkonini beradi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'qituvchilarga yangi o'quv usullarini taklif qilishi va ularning malakasini oshirishga yordam bera oladi. Xususan, o'zim so'nggi ikki yilda universitetdagi darslarimning amaliy qismini sun'iy intellekt yordamida o'yinlashtirish (geymifikatsiyalash)ga va talabalar diqqatini gadjetlardan qaytarib, o'zimga og'dirishga oz bo'lsa-da erishdim. Bu — soha vakili sifatida o'z kuzatuvim va xulosalarim. Lekin har qanday yangi texnologiya singari sun'iy intellekt ham muammolardan xoli emas. Masalan, unga haddan tashqari tayanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini pasaytirmaydi. Talabalar muammoli keyslarni o'zlari yechishi kerak. Misol uchun, matematik masalani yechishda sun'iy intellektdan faqat yechimini tekshirish uchun foydalansa bo'ladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni sun'iy intellekt platformalariga kiritishdan saqlanish shart. Chunki bu ma'lumotlar xavfsizligi kafolatlanmagan.

O'qituvchilar esa talabalarga sun'iy intellekt vositalaridan axloqiy foydalanishni o'rgatishi (bunda o'zi ham bu normalarga amal qilishi), ularaga mustaqil ta'lim olishning muhimligini tushuntirishi kerak. Sun'iy intellektidan foydalanib, dars mashg'ulotlarini yaxshilash mumkin, biroq shaffoflik va akademik halollikni saqlash lozim.

Umuman, rivojlanishni istagan har bir inson sun'iy intellektidan foydalanganda ishing qaysi qismida ishlatilganini aniq ko'rsatishi, undan yordamchi vosita sifatida foydalanishi, maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun doimiy choralar ko'rishi, taqdim etilayotgan ma'lumotlarni har doim va qayta tekshirishi kerak. Nega deganda, sun'iy intellekt barcha sohada, xususan, ta'limda inqilob qilishda davom etmogda. Kelajakda sun'iy intellekt yordamida nafaqat o'quv jarayoni yanada samarali kechadi, balki ta'lim har bir inson uchun yanada ochiq va qulay bo'ladi. Biroq uning ortida bizga hozircha noma'lum bo'lgan haqiqiy tahdidlar ham paydo bo'lishi mumkin.



## Milliy davlatchiligimiz tarixidan

# ILM-FAN TARAQQIY ETGAN DAVR

**Milliy davlatchiligimizda somoniylar sulolasi hukmronligi davri (819-999-yillar) Birinchi Rennessans davriga to'g'ri keladi. Birinchi Rennessans davrida bugungi O'zbekiston hududida ilm-fanning yuksak taraqqiyoti kechgan. Qolaversa, aniq va tabiiy fanlar, islomiy ilm tarmoqlari, tarix, adabiyot kabi fan sohalari, madaniyat va san'at rivojlangan.**

Somoniylar sulolasi tarix sahnasida VIII asr oxiri — IX asr boshlarida paydo bo'lgan. Sulola ajdodlari Turon, Eron hududidagi siyosiy jarayonlarda somoniylar davridan boshlab faol qatnashib kelgan. Ularning tarixi somoniylar davrida yashagan qo'mondon Bahrom Cho'bin bilan bog'lanadi.

Balx viloyati Somon qishlog'ining dehqoni (egasi), Bahrom Cho'bin avlodlaridan bo'lgan Somonxudot umaviy xalifa Hishom bilan Abdulmalik davrida islomni qabul qilgan. Somonxudot VIII asrning birinchi choragida Balxdan Xuroson amiri Asad ibn Abdulloh Qasriy (ayrim manbalarda Qushayriy) huzuriga kelib, Balxdagi dushmanlariga qarshi kurashda unga yordam berishini so'raydi. Amirning yordami bilan dushmanlarini yengib, mavqeiini tiklab olgach, u islom dinini qabul qilib, o'g'lining ismini Xuroson amiri sharafiga Asad deb qo'yadi.

Somonxudotning o'g'li Asad xalifalik sharqiy hududlarida keng yoyilgan va umaviylar sulolasiga qarshi qaratilgan Abu Muslim harakati ishtirokchisi va uning izdoshlaridan bo'lgan. Asad xalifa Horun Rashid zamonida vafot etgan. Uning siyosiy faoliyatiga doir boshqa aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Asaddan besh o'g'il dunyoga kelgan: Ularning ismlari Nuh, Ahmad, Nasr, Yahyo, Ilyos bo'lgan.

**Sulolaning ilk hukmdorlari.** Asad ibn Somon o'g'illarining eng kattasi Nuh ibn Asad 819-842-yillarda Movarounnahr va Xuroson viloyatlarini boshqargan. U 819-yilda abbosiyalar xalifasi Ma'munning topshirig'iga ko'ra, Xuroson noibi G'asson ibn Abbos tomonidan Samarqand hokimi etib tayinlangan. Turkiy an'analarga ko'ra, Nuh aka-ukalarning eng yoshi kattasi sifatida sulola yetakchisi hisoblangan. 839-840-yillarda Isfijobni qo'lga kiritgan.

Nuhdan keyin uning lavozimini inisi Ahmad ibn Asad (842-864) egallagan. Ahmad oilaning eng yoshi katta vakili sifatida Nuhning vafotidan keyin Samarqand, ya'ni Movarounnahr taxtini egallagan. Taxminan 855-856-yillarda inisi Yahyo vafot etganidan keyin Shosh (Toshkent) ham Ahmadning tasarrufiga o'tgan. Muayyan vaqtdan keyin Ahmad Farg'onaga qaytgan va o'g'li Nasrni Samarqandda qoldirgan.

864-yilda Ahmad vafot etganidan keyin taxtni uning o'g'li Nasr egallagan. Ahmad ibn Asadning to'ng'ich o'g'li va vorisi Abul Hasan Nasr ibn Ahmad g'ayridinlarga qarshi g'azavot urushlari olib borgan. Uning 300 ming askar bilan Shovag'arga yurish qilgan ma'lum.



**Mansur ibn Nuh. XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida Elxoniylar (Eronda hukmronlik qilgan, kelib chiqishi mo'g'ullarga bog'liq sulola) davrida chizilgan.**

888-yilda Ahmad ibn Asadning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash qaytdan boshlandi. Bir tarafda Nasr va Asad, ikkinchi tarafda esa Ismoil va Is'hoq urushdi. Bu urushlarda Ismoil g'alaba qozondi. Aka-ukalar o'rtasida sulh tuzilgan va Nasr Samarqandda 892-yilgacha, ya'ni o'limiga qadar sulolaning eng yoshi katta vakili sifatida hukmronlik qilgan, ammo amalda Ismoil yetakchi vazifasini bajargan.

Somoniylar sulolasining gullab yashnagan davri 900-954-yillarga to'g'ri keladi. Ismoil ibn Ahmad akasi Nasr ibn Ahmad sulola yetakchisi bo'lgan vaqtda yigirma yilga yaqin Buxoro hokimi lavozimini egallagan. 892-yilda Nasrning o'limidan keyin Ismoil butun Movarounnahr hukmdoriga aylangan va poytaxtini Buxoroga



ko'chirgan. Ismoil abbosiy xalifa Mu'tazid davrida Movarounnahr hukmdori sifatida tan olingan. 893-yilda u shimoliy chegaralardagi Taraz shahriga hujum qilgan. Ismoil, shuningdek, Sirdaryo o'rta havzasidagi Ustrushona hukmdori Afshin ustidan g'alaba qozongan va u yerda somoniylar hokimiyatini o'rnatgan. U 900-yili Amr ibn Lays ustidan Balx yaqinida erishgan g'alabasi va uni asir olganidan keyin zamondoshlari tomonidan buyuk hukmdor sifatida tan olingan. O'sha zamon manbalarida somoniy hukmdorlar ichida Ismoil ilk Xuroson voliysi (noyibi, hukmdori) sifatida ko'rsatiladi.

Ismoil xalifalar nomidan tangalar zarb qildi va xutbada xalifa ismini hukmdor sifatida tan oldi, ammo Bag'dodga nisbatan uzoqroq hududda hukmronlik qilgani sababli amalda mustaqil hukmdor edi. Ismoil ko'plab vaqtlar ta'sis etgan, obodonchilikka katta e'tibor qaratgan.

Ahmad ibn Ismoil Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan. U 907-yilda otasining o'limidan keyin taxtga chiqqan.

Keyingi somoniy amir Nasr ibn Ahmad otasi Ahmad o'z g'ulomlari tomonidan o'ldirilganidan keyin, 914-yilda 8 yoshida taxtga chiqqan. Bu davrda boshqaruv vazir, olim va geograf, shuningdek, davlat arbobi sifatida ham shuhrat qozongan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Jayhoniyo qo'lida edi. Keyinroq 922-yilda Abul Fazl Muhammad ibn Ubaydulloh Bal'amiy vazir etib tayinlangan. U ham buyuk olimlardan edi. Nasr davrida Buxoroda ilm-fan rivoji eng cho'qqisiga chiqqan. Jayhoniyo, Bal'amiy kabi vazir olimlar bunda juda faollik ko'rsatgan.

qildi. Abdulmalik juda yosh edi va chavgon o'yini ishqibozi edi. Natijada u 17 yoshida Buxoro maydonida 961-yilda otdan yiqilib o'lgan. Taxtga uning inisi Mansur ibn Nuh chiqqan.

Mansur turk qo'mondonlari ta'siridan qutulishga uringan, ammo u bu ishda Xuroson hokimi, kelib chiqishi g'ulomlardan bo'lgan Alptegin yordamiga tayangan. Natijada

va'da bergan. Sabukteginning 20 ming kishilik qo'shini Abu Ali Simjuriy va Foiq askarlariga Hirot atrofida kuchli zarbalar bergan. Nuh ibn Mansur Buxoroga qaytgan. Biroq uning somoniylar davlatini tanazzuldan saqlab qolish yo'lidagi harakatlari natija bermadi. Qoraxoniylarning Buxoroga 996-yildagi hujumlari oqibatida Sabuktegin bilan Bug'roxonning vorisi Nasr Elakxon o'rtasida Nuh ibn Mansurning ishtirokisiz muzokaralar o'tkazilib, somoniylarga Movarounnahrning faqat markazi qoldiriladi. Nihoyat tinchlik o'rnatilgan bo'lsa-da, undan oldingi to'qnashuv yillari somoniylarga qattiq ta'sir ko'rsatgan, qoraxoniylar shimoli-sharqning katta qismini o'z nazoratiga olgan bo'lsa, g'aznaviylar Xurosonda va Amudaryodan janubdagi yerlarda mustahkam o'rnatishgan edi.

Nuh saroyida shoir Daqiqiy ijod qilgan va u keyinchalik Abulqosim Firdavsiy tomonidan tugallangan mashhur "Shohnoma" asarini yozishni boshlagan. Mashhur tabib Abu Ali ibn Sino 16 yoshida Nuh ibn Mansurni davolab, o'sha davrda Sharqdagi eng boy sanalgan somoniylar kutubxonasida mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Mansur II ibn Nuh davrida qo'mondonlar Abu Ali Muhammad Simjuriy, Foiq, Bektuzun, Sabuktegin va Mahmud kabilarning ta'siri yuqori bo'lgan. Qoraxoniylar sharq tomonidan somoniylarga qarashli yerlarni toritib olishda davom etgan.

Isyonchilar qoraxoniyo Abul Hasan Nasrni somoniylarning ichki muammolariga aralashishga chorlagan. Qoraxoniylar tomonga o'tgan somoniylar qo'mondoni Foiq qoraxoniyo hukmdori qo'shini bilan Buxoroga hujum qilgan. Mansur qochib kergan, ammo keyinroq qaytishga ko'ndirilgan. Foiq esa o'z hokimiyatini saqlab qolgan.

Foiq va Bektuzun Mansurning Xuroson ustidan to'liq nazoratni Mahmudga berishidan xavfsirab, uni 999-yilda taxtdan tushirgan va ko'ziga mil tortgan. Mansurning inisi Abdulmalik II ni amir deb e'lon qilgan.

Abdulmalik II ibn Mansur 999-yilda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan. Uning qisqa hukmronlik davrida somoniylar sulolasi tugatilgan. 999-yil qishida otasi amir



Nuh ibn Nasrning oltin dinori.

yashnagan. Abu Ali Bal'amiy tomonidan Tabariyning tarixiga oid mashhur asari fors tiliga tarjima qilingan.

Nuh II ibn Mansur hokimiyat tepasiga kelishiga onasi va vazir Abul Husayn Abdulloh ibn Ahmad Utbiy yordam bergan. Uning hukmronligi davrida qoraxoniylar 980-yilda Isfijobni egallagan. Utbiy esa Xurosondagi somoniylar noyibi Abul Hasan Simjuriyni yo'q qilishga e'tibor qaratdi. Vazir Abul Hasanini juda kuchli deb hisoblagan. Nuh 982-yilda uni lavozimidan chetlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Uning o'miga o'z odamlaridan bo'lgan Tosh ismli turk qo'mondonni tayinlagan.

Buvayhiylarga qarshi harakatlar somoniylar tomonidan 982-yilda ham amalga oshirilgan. Boshida somoniylarning qo'li baland kelgan, biroq keyin buvayhiylar muvaffaqiyat qozongan. Buvayhiylarning somoniylar davlatiga bostirib kirishi Azud ad-davlaning vafoti tufayli amalga oshmagan. Siyosiy jarayonlarda turk lashkarboshilarining mavqei kuchaygan. Nuh ibn Mansurning lashkarboshisi Foiq Raboti Malik yaqinida 992-yilda bo'lgan jangda ataylab yengilgan va qoraxoniylar hukmdori Horun (manbalarda uning ismi Hasan tarzida ham keladi) Bug'roxon Buxoroni urushsiz ishg'ol qilgan. Biroq 992-yilda Bug'roxon kasallik tufayli Qashqarga qaytib ketayotganda yo'lda vafot etgan.

Nuh Omuldan (Chorjo'y) qaytib, Buxoroni qayta egallagan. Bu paytda somoniylar davlatiga qarashli Xuroson Abu Ali Simjuriy (Abulhasan Simjuriyning o'g'li) va Foiq, G'azna va Hirat viloyatlari Sabuktegin qo'lida bo'lgan. Nuh bilan Sabuktegin o'rtasida Kesh va Naxshabda o'zaro uchrashuv bo'lib, unda Sabuktegin somoniylarni qo'llab-quvvatlashga

Mansur II taxtdan tushirilgan va ko'ziga mil tortilgan. Mahmud G'aznaviy esa Mansurning taxtdan ag'darilishidan Xurosonning somoniylar qo'lida bo'lgan qismlarini zabt etish uchun bahona sifatida foydalangan.

Abdulmalik va Foiq (keyinchalik Bektuzun ham qo'shiladi) Mahmudga qarshi yangidan hujum qilish uchun yetarli kuch to'plashga urindi. Biroq Foiq tez orada vafot etdi, taxminan bir vaqtning o'zida Nasrxon boshchiligidagi qoraxoniylar bosqinchilik yurishlarini kuchaytirdi. O'z qo'l ostidagilar xiyonatiga duch kelgan Abdulmalik qoraxoniylar hujumiga qarshi o'z edi. Buxoro kurashsiz bosib olindi, Abdulmalik esa asir etildi. Abdulmalik sakkitz oydan bir oz ko'proq vaqt hukmronlik qilgan. Qoraxoniyo Nasr Elak (Elig) ibn Ali 999-yil kuzida Buxoroni egalladi, u Abdulmalikni taxtdan ag'darib, O'zganga surgun qildi va Movarounnahrni o'z mulklari tarkibiga qo'shib oldi. Shu tariqa somoniylar hukmronligi deyarli tugadi va ularning yerlari qoraxoniylar va Mahmud G'aznaviy o'rtasida taqsimlandi. Oxirgi somoniy Ismoil ibn Nuh Muntasir yana 1000-1004-yillarda sulola taxtini tiklash yo'lida kurashdi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Somoniylarning so'nggi amiri Muntasir 1005-yilda ko'chmanchi arablarning Zamm qal'asi yaqinida joylashgan lashkargohida o'ldirilgan.

Somoniylar sulolasi amirlari o'zbek davlatchiligi tarixida, jumladan, ilm-fan homiysi, islom himoyachisi va xalq manfaatini ifodalovchi hukmdorlar sifatida davlat rivojida muhim o'rin tutgan.

**Husniddin MAMADALIYEV,**  
tarix fanlari nomzodi



